

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Son 7 Jild 4
2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 7 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Abduxamidov Islombek

O‘ZBEKISTON AHOLISINING ROSSIYA FEDERATSIYASIDA MEHNAT
MUHOJIRLIGI TARIXI 10-18

Фарманова Гульнара Комилевна

ПОДНЯТИЕ МЕТОДИКИ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ОБЩЕМИРОВОЙ
УРОВЕНЬ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ 19-24

Индиаминова Шоира Амриддиновна

РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА В САМАРКАНДСКОМ СОГДЕ В ЭПОХУ РАННЕГО
СРЕДНЕВЕКОВЬЯ 25-29

Mirzakhdamova Dildora Zafarovna

XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA‘MINLASHDA FARG‘ONA VILOYATIDA
IPAKCHILK ORQALI KASANACHILIK VA UY MEHNATINI RIVOJLANTIRISH 30-35

Ismoilova Parvina

TURKISTON MINTAQASIDAGI INSTITUTSIONAL O‘ZGARISHLAR: ROSSIYA KAPITALI UCHUN
KANALLARNING SHAKLLANISHI (19-ASR OXIRI - 20-ASR BOSHLARI) 36-41

Jomurodov Lazizbek Islomovich

O‘ZBEKISTONDA TERI-TANOSIL KASALLIKLARIGA QARSHI KURASH
JARAYONI 42-46

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Назарова Раъно Рустамовна, Нигматуллаева Гульчехра Нуруллаевна

ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ, КРИТЕРИИ И ПОКАЗАТЕЛИ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЕ УСТОЙЧИВОЕ
РАЗВИТИЕ В СФЕРЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ 47-54

Yegamberdiyeva Xurshidaxon Alisherovna

VAGONLARDAN FOYDALANISHNING SIFAT KO‘RSATKICHINI OSHIRISHNI
TADQIQ QILISH 55-61

Mamadaliyev Ulug‘bek

JAHON TURIZMIDA TUROPERATORLIK FAOLIYATINING RIVOJLANISH HOLATI 62-69

Jalilov Arslon Xoshimovich

ТЕМИР YO‘L TRANSPORTINING INNOVASION MUHITDAGI RAQOBATDOSHLIK DARAJASINI
BAHOLASH 70-75

Kamchibekov Farxod Olimjonovich

O‘ZBEKISTON HUDUDLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA MAXSUS
IQTISODIY HUDUDLAR VA KICHIK SANOAT ZONALARINING ROLI 76-82

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Djurayev Lukmon Narzullaevich

ZAMONAVIY O‘ZBEKISTON JAMIYATIDA YOSHLAR IQTISODIY MADANIYATINING
TRANSFORMATSIYALASHUVI 83-87

<i>Norkulov Ubaydulla Umarovich</i> MAHALLADA JINOYATLARNI ERTA ANIQLASHDA JAMOATCHILIK NAZORATINI KUCHAYTIRISHNING IJTIMOYIY-FALSAFIY MEKANIZMLARI	88-92
<i>Пулатов Шердор Нематёнович</i> ДОКТРИНА ЛЮБВИ АЛИШЕРА НАВАИ И МАХАТМЫ ГАНДИ	93-105
<i>Yusupov Murodali Sunnatovich</i> O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION TIZIMLARNI QO'LLASHNING IJTIMOYIY- FALSAFIY MASALALARI	106-110
<i>Suleymanov Sarvar Sunatullayevich</i> O'ZBEKISTONNING YANGI DAVRGA XOS BO'LGAN MA'NAVIY TEXNOLOGIYALARNING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI	111-116
<i>Shernazarov Ravshan Avazovich</i> SIYOSIY E'TIQOD: UNING TIZIMI VA FUNKSIYASINING FALSAFIY TAHLILI	117-122
<i>Nasrullayev Ravshanxon Sirojxonovich</i> VATANPARVARLIKNI IJTIMOYIY- MADANIY HODISA SIFATIDA AHAMIYATI.....	123-126
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Matkarimova Salomat Ko'ziyevna</i> ALISHER NAVOIY VA HAYDAR XORAZMIY: MUSHTARAKLIK VA O'ZIGA XOSLIK	127-133
<i>Tairova Maxfuza Abdusattorovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MAMLAKATSHUNOSLIKKA DOIR RAMZIY VOSITALARNING TARJIMADA QAYTA IFODALANISHI	134-139
<i>Rahimova Maftuna</i> LISONIY BELGI VA ASSOTSIATSIYA	140-143
<i>Umaraliyeva Dildora Taxirjanovna</i> O'ZBEK LATIFALARI, ULARNING TASNIFI VA TO'PLASH BORASIDA OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR	144-147
<i>Xursanov Nurislom Iskandarovich</i> O'ZBEK FRAZELOGIK BIRLIKLARINING PRAGMATIK TAHLILI	148-154
<i>Umarov Umidjon Akram o'g'li</i> RAMZ AXRETIPLARINING TASNIFLANISHI VA BADIY TAHLILI	155-159
<i>Облоқулова Шахло Асрор қизи</i> ЗАМОНАВИЙ ЖАҲОН АДАБИЁТИДА ТАОМ ДИСКУРСИ	160-164
<i>Nazarova Lola Maqsadilla qizi</i> KORPUS LINGVISTIKASI: BNC KORPUSINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI	165-170
<i>Umarxonova Dilafruz Murotjonovna</i> “MARDLIK” VA “QO'RQOQLIK” KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI	171-175
<i>Yunusova Ganjina Rustamovna</i> NAZMDA YO'L XRONOTOPINING BADIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI	176-180
<i>Мусаев Файзулло Оманович</i> АРАБ ДУНЁСИДА “МАСАЛ” ИЛМИНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА РИВОЖИ	181-186

<i>Ubaydullayeva Dilafruz Fazliddinovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI "ANGER" VA "G'AZAB" ATAMALARINING ETIMOLOGIK VA LEKSIKOGRAFIK TAHLILI	187-192
<i>Narmuratov Zayniddin Radjabovich</i> FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR KOMPONENTLARI TAHLILI VA ULARNING STRUKTURAVIY MODELLARI	193-196
<i>Masharipova Nargiza Otaxonovna</i> TARIXIY-BADIIY ASARLAR TARJIMASIDA DINIY VA TARIXIY SO'ZLAR TARJIMASI MUAMMOSI	197-201
<i>Икромова Нугина Ойбековна</i> ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ТРУДНОСТИ ПЕРЕВОДА ЗАГЛАВИЯ ЛИТЕРАТУРНОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ	202-207
<i>Najmiddinova Mehriqul Najmiddin qizi</i> NEGATIVLIKNI IFODALOVCHI TEXNIKAGA OID TERMINLARNING QIYOSIY TADQIQI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)	208-213
<i>Eshniyazova Maysara Beknazarovna</i> "NAZMUL JAVOHIR" ASARIDA G'OYAVIY BADIY POETIKA	214-221
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Саидов Ақром Акмалович</i> ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ЖАЗОНИ ИЖРО ЭТИШ СИЁСАТИ ҲАМДА УНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ	222-230
<i>Raimova Nargiza Doroyevna</i> TIJORAT MAXFIY MA'LUMOTLARINI HIMOYA QILISH: INTELLEKTUAL MULK HUQUQI SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	231-237
<i>Умурзақов Жасурбек Қосимжанович</i> КРИПТО-АКТИВЛАР НОҚОНУНИЙ АЙЛАНМАСИ БИЛАН БОҒЛИҚ ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР УЧУН ЖАВОБГАРЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	238-242
<i>Nurmatatova Noila Doniyorovna</i> KONSTITUTSIYAVIY SUDLOV ORGANI TOMONIDAN FUQAROLAR VA YURIDIK SHAXSLARNING SHIKOYATINI KO'RIB CHIQUISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	243-248
<i>Muxammadjonov Jasurbek Jaxongir o'g'li</i> FUQAROLARNING TADBIRKORLIK BILAN SHUG'ULLANISH HUQUQINING XALQARO VA MINTAQAVIY HUQUQIY KAFOLATLARI	249-260
<i>Адилбаев Бекбосын Абатбаевич</i> FUQAROLIK-HUQUQIY ВАКИЛЛИК ТУШУНЧАСИ, МОҲИЯТИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ	261-267
<i>Турсунбоев Сардор Муроджон ўғли</i> ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ТИЗИМИДА ТЕРГОВ ТУЗИЛМАЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	268-275
<i>Mukumov Bobur</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASIDA TOVAR BELGILARINI HUQUQIY MUHOFAZA QILISH MASALALARI	276-282
<i>Nabiev Firuz Xamidovich</i> INTELLEKTUAL MULK SOHASIDAGI XALQARO HUQUQIY NORMLARNI O'ZBEKISTON	

RESPUBLIKASI QONUNCHILIGIGA IMPLEMENTATSIYA QILISHDA “MOSLASHUVCHANLIK” KONTSEPTSIYASINING O’RNI	283-289
<i>Калимбетов Ерназар</i> ГРАЖДАНСКИЕ ПРАВА В СФЕРЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА: ПОНЯТИЕ, ВИДЫ И СОДЕРЖАНИЕ В КОНТЕКСТЕ АДМИНИСТРАТИВНО-ПРАВОВОЙ ЗАЩИТЫ	290-297
<i>Ibrohimov Azimjon Abdumotamin o'g'li</i> KORPORATSIYANI AMALDA BOSHQARUVCHI SHAXSLAR JAVOBGARLIGI	298-306
<i>Ходжаева Ширин</i> ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ РИСКОВ, СВЯЗАННЫХ С ПРЕДДОГОВОРНЫМИ ОТНОШЕНИЯМИ	307-317
<i>Маматкулов Камолiddин Галабаевич</i> ТАҚИҚЛАНГАН ЭКИНЛАРНИ ЕТИШТИРИШ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШДА ИСБОТЛАНУВЧИ ҲОЛАТЛАР ВА УЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ	318-323
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Nazarova Ra'no Sidiq qizi</i> HUQUQBUZARLIKKA MOYIL BO'LGAN BOLALARDA O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	324-329
<i>Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna</i> UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QITUVCHISI KASB STANDARTINING MAZMUN TAHLILI	330-341
<i>Hamidova Laylo Kamildjonovna</i> OLIV PEDAGOGIK TA'LIMDA ARALASH O'QITISH MODELLARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	342-346
<i>Ajiniyazova Sholpan Saparniyazovna, Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich</i> MAKTABDA KIMYOVIY MASALALARNI ECHISH BO'YICHA MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH SHAKILLARI	347-357
<i>Rasulova Dilafruzxon Sharobiddin qizi</i> GLOBAL PEDAGOGIK SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR KOMPETENSIYASIGA METODIK YONDASHUVLAR	358-363
<i>Kenjaboyev Sharifjon Shuxrat o'g'li</i> INDIVIDUAL-KABIY RIVOJLANISH – PEDAGOGLIK KASBI TARBIYASINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA	364-369
<i>Jalilov Umidjon Jahongirovich</i> OG'IR ATLETIKA MASHQLARINING AMALGA OSHIRISH USLUBIYATI	370-375
<i>Najmiddinova Gulnora Najmiddin qizi</i> OLIV TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MEKANIZMLARI	376-381

Received: 30 June 2024
Accepted: 5 July 2024
Published: 15 July 2024

Article / Original Paper

THE ISSUES OF TRANSLATION OF RELIGIOUS AND HISTORICAL WORDS IN THE TRANSLATION OF HISTORICAL AND LITERARY WORKS

Masharipova Nargiza Otaxonovna

Associate Professor, PhD – Urgench State Pedagogical Institute
E-mail: nargizamasharipova0787@gmail.com

Ismoilova Onagul Ibrohimovna

PhD student, Urgench State University
E-mail: ismoilovaonagul@gmail.com

Abstract. This article is devoted to the field of translation, discussing the crucial role of translation in the world, opinions expressed by representatives of translation schools of the world, mainly addressing issues found in historical and fiction works that translators may encounter, such as the translation of religious and historical terms, omission or addition of certain words, and the impact of these actions on the context.

Key words: adequate translation, style, rhyme, archaic words, realities, hadith, wise leader, prophet, faith, religious words.

TARIXIY-BADIIY ASARLAR TARJIMASIDA DINIY VA TARIXIY SO‘ZLAR TARJIMASI MUAMMOSI

Masharipova Nargiza Otaxonovna

f.f.f.d., PhD, Urganch davlat pedagogika institute

Ismoilova Onagul Ibrohimovna

Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqola tarjimachilik sohasiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda jahonda tarjimaning o‘rni, dunyo tarjimachilik maktablarining vakillari tomonidan bu borada bildirilgan fikrlar, asosan tarixiy-badiiy asarlarda tarjimon duch kelishi mumkin bo‘lgan muammolardan biri diniy va tarixiy so‘zlar tarjimasi, ayrim so‘zlarni tushirib qoldirish yoki qo‘shish va buning kontekstga ta‘siri yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: adekvat tarjima, uslub, qofiya, arxaik so‘zlar, realiyalar, hadis, pir, nabiy, e‘tiqod, diniy so‘zlar

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I7Y2024N32>

Jahon xalqlari integratsiyalashuvi natijasida dunyo hamjamiyati vakillari bir-birining madaniyatini ham har taraflama o‘rganishga, hamda shu asnda turli sohalarda o‘zaro hamkorlik aloqalarini o‘rnatishga intilmoqda. Turli xalqlar madaniyatining rivojlanishi o‘sha xalqlarning madaniyati, san‘ati, adabiyoti kabi muhim sohalardagi aloqalarning taraqqiyotida ko‘zga tashlanadi. Har bir millatning madaniyati, urf-odatlar, kundalik turmush hayoti kabi o‘zigagina xos jihatlari badiiy va tarixiy adabiyotlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Aynan shu

sababdan ham jahon adabiyoti durdonalari namunalarini tahlil qilib o'rganish orqali o'quvchi o'sha xalqning oldingi va qadimgi qadriyatlarini, urf-odatlarini va madaniyatini sirlaridan, madaniyatining tarixiy bosqichlaridan xabardor bo'ladi.

Kirish. Barchamizga ma'lumki, ziyo ulashuvchi har qanday asar mazkur jamiyatning rivojiga, davlatning yuqori darajada muvaffaqiyatiga sabab bo'ladi. Shu sababdan ham, XX asr ijodkorlarining ko'pchiligi o'zbek xalqini jahon adabiyoti durdonalaridan manun qilish va jamiyatimizni o'zgalarga qaramlikdan, qullikdan olib chiqish, o'zbek xalqining ko'zlarini kattaroq ochish maqsadida bir qator jahon adabiyoti vakillarining asarlarini rus, ingliz, nemis va fransuz tillaridan o'zbek tiliga tarjima qilishgan. Ko'plab asarlarni xalqqa yanada oson yetkazib berish maqsadida sahnalarda yoritib berishga harakat qilishgan. Behbudiy, Abdulla Avloniy, Cho'lpon, Fitrat kabi buyuk allomalarimiz tarjimachilik sohasida qattiq mehnat qilishgan, hatto o'z jonlarini xavf ostiga qo'yib bo'lsada, bugungi tinch zamonamiz uchun ter to'kishgan. Qaysidir ma'noda xalqning uyg'onishiga, chet el adabiyotidan namuna olishga, ozodlik, mustaqillik uchun xalqni undashga muvaffaq bo'lishgan. Aslida, jahon tarjimashunoslik maktablariga nazar soladigan bo'lsak, bundan ikki ming yil oldin Liviy Andronik Gomerning "Odisseya" asarini lotin tiliga o'girishi bilan amaliy tarjimashunoslikni boshlab bergan. Yevropada esa VIII-IX asrlarda amaliy tarjimashunoslikka qiziqish uyg'ongan [1].

O'zbekistonda esa XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, G'aybulla Salomov, Jamol Kamol, Abdulla Sher, Shavkat Rahmon jahon adabiyoti namunalaridan xalqimizni xushnud qilishga katta xissa qo'shganini guvohi bo'lishimiz mumkin. Tarjima orqali, o'zga xalqlar tilini bilish orqali biz o'z hayotimiz uchun yangi va yorqin eshiklarni ochishimiz mumkin. Har bir sohada jahon yangiliklari bilan hamnafas bo'lishimiz va buni o'z tadqiqotlarimizga tadbiiq qilishimiz mumkinligi insonni quvontiradi. Tarjimani o'ziga kasb qilib olgan insonlardan esa ikkala tildagi juda katta bilim, o'zga tilli xalqlar madaniyati, urf-odatlarini haqida yozilgan asarlarni yozuvchi his his qilgan darajada ikkinchi xalq o'quvchisiga yetkazib berishdek katta mas'uliyat turadi.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng mamlakatimizda olib borilayotgan bir qator islohotlar qatorida "Mamlakatimizda bir necha xorijiy tillarni biluvchi zamonaviy kadrlar tayyorlash, xorijiy tillar bo'yicha ilmiy ishlar olib borish, til o'rgatish metodologiyasini takomillashtirish" [2] ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanishi ilm-fan sohasidagi eng so'nggi yutuqlardan izlanuvchilarni boxabar qilish, bunda adekvat tarjimalarni oshirish uchun tarjimashunoslik sohasida yanada ko'proq, yanada chuqurroq izlanishlar olib borishga yo'l ochib bermoqda. Ayniqsa, mamalakatimiz mustaqilligidan keyingi yillarda bu sohada tub burilishga erishildi desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Chet el adabiyotini milliy tilimizga, o'zbek adabiyoti namunalarini o'zga tillarga o'girib xalqqa taqdim qilayotgan, o'z sohasining haqiqiy mutaxassisleri bu borada yetarlicha muvaffaqiyatga erishib kelyaptilar. Lekin oldin ta'kidlaganimizdek, bu yo'l albatta oson emas, qanchadan-qancha izlanishlar olib borib, kerakli tarjima turini, mos uslubni, to'g'ri lingvistik ekvivalentlarni, frazeologik birikmalarni qo'llay olish tarjimonida katta mahorat talab qiladi. O'zining yorqin individual uslubi bilan ajralib turuvchi yozuvchining ijodida bir emas bir necha uslublar ko'zga tashlanadi [3]. Tarjimon buni anglab yetishi va asarning xalqqa to'g'ri yetkazilishidagi harakati bu uning haqiqiy ijodkor ekani tasdig'i bo'lishi tabiiy. Asarning turiga ko'ra badiiiy asar bo'lsa, badiiy bo'yoqdorlikni ikkinchi tilda yoritgan holda, ilmiy asar bo'lsa termin va tushunchalarni to'g'ri qo'llay olgan holda, she'riy bo'lsa, qofiya va radiflarni moslagan holda, tarixiy bo'lsa, arxaik va tarixiy so'zlardan

unumli foydalangan holda ikkinchi tilda yoritib bera olish zarur. Bu borada jahon olimlarining fikrlariga yuzlanadigan bo'lsak, turlicha fikrlar mavjudligining guvohi bo'lamiz. "Ikki til o'rtasidagi tarjima jarayoni tarjimon tomonidan biror aslyat tilidagi og'zaki matnni biror turli tarjima tillaridagi og'zaki matnga o'zgartirishni o'z ichiga oladi" [4]. Mazkur nutqda A.Rojo tarjima sohasiga oid umumiy fikrini keltirib o'tganini ko'rishimiz mumkin. P.Nyumarkning fikricha, "Tarjima- biror matn ma'nosini boshqa tilga muallif nazaridagi yo'l va uslub bilan o'girishdir" [5]. Fikrimizcha Nyumark bu yerda tarjimada barcha uslublardan to'g'ri foydalana olish, yozuvchining fikrini o'zga til egasi bo'lgan kitobxonga to'g'ri yetkazib bera olishni nazarda tutyapti.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. Hozirgi kunda tarjimachilik sohasida olib borilayotgan izlanishlarning ko'pchiligi tarjimada uchrashimiz mumkin bo'lgan qiyinchiliklar, ikkinchi tildagi aynan muqobilning mavjud emasligi ortidan paydo bo'luvchi pragmatik muammolarga bag'ishlanayotgani yosh tarjimonlarga katta imkoniyatlar yaratishi bizni quvontiradi. Tarjimachilik sohasida olib borilgan har qanday izlanish va tadqiqotlar tilshunoslikda doimo katta qiziqish bilan muhokama qilinib kelyapti. Masalan, D.Hoshimova "“Boburnoma” matnidagi tasviriy vositalarning ingliz tiliga tarjimalari tadqiqi" [6] mavzusidagi dissertatsiyasida asardagi tasviriy vositalar tarjimasining leksik, semantik, sintaktik-stilistik, pragmatik va lingvokulturologik xususiyatlarini yoritib bergan. Bu bilan olim, bir tarafdin tarixiy asarlarga bo'lgan ishtiyoqini namoyon qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondin tarixiy-badiiy asarlar tarjimasida duch kelishimiz mumkin bo'lgan muammolarni qaysidir ma'noda yechimini keltirgan.

Mamlakatimizdagi tarjimachilik maktabining gullab-yashnashiga sababchi bo'lgan tarjimon olim G'. Salomov tarjimaga shunday ta'rif bergan: "Tarjimaning bosh xossasi uning boshqa til vositalari bilan qayta yaratishdan iborat ijodiy jarayon, so'z san'atidir" [7]. Buyuk tarjimonning fikrlarini mohiyatini anglagan holda, tarjimoni so'z san'ati deb, tarjimonni esa haqiqiy ijodkor deb ta'riflasak to'g'ri ta'rif bergan bo'lamiz. Chunki, bir asarni ikkinchi tilga tanishtirganda tarjimon xalqning urf-odatlarini, milliy qadriyatlarini ikkinchi millatga yetib boradigan darajada sodda, tushunarli qilib yaratishdan tashqari, ijodiy yondashgan holda, asar uslubini ham to'g'ri tanlay olishi oson ish emas va bu hamma ijodkorning ham qo'lidin kelmaydi. Chunki, tarjima tufayli milliy adabiyotlar orasidagi aloqalarning mahsuli sifatidagi yangicha qarashlar, yangicha g'oyalar, yangicha janrlar ham shakllanishi mumkin. Kuzatishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, xorijiy kitobxonlar tarjima qilingan o'zbek milliy adabiyoti namunalarini judayam sevib o'qiydi va o'zbek ijodkorlari haqida pozitiv fikrlar bildirishadi. 1898-yilda Mirzo Muhammad Haydarning "Tarixi Rashidiy" deb nomlangan asari Eduard Deni Ross tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan va ingliz kitobxonlari tomonidan iliq kutib olingan. Mazkur tarixiy asarga bo'lgan qiziqish izlanuvchilarda qiziqish uyg'otgan va 1996-yilda professor Uilyam Takston tomonidan ingliz tiliga qayta tarjima qilinib, nashr qilingan [6]. Albatta, vaqt o'tgani sari ilm-fanda taraqqiyot, o'zgarishlar kuzatilgani sababli, keyingi qilingan tarjima oldingisidan ancha mukammal, sodda va ravon tilda qilingani ta'kidlanadi. Bizning o'zligimizni dunyoga namoyon qiluvchi mazkur adabiyot namunalari to'g'ri tarjima qilinsagina ijodkorning fikrlari kitobxonlar tomonidan to'g'ri talqin qilinadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Mazkur sabablar tufayli ham biz o'zbek milliy adabiyotining yana bir yorqin namunasini – Ozod Masharipovning "Xorazmnoma" tarixiy asarini, ingliz kitobxonlariga taqdim qilish maqsadida uning tarjimasiga jazm qildik. Shu

jarayonda milliy tariximizda chuqur iz qoldirgan bobolarimiz hayot yo'llari haqida tushunchaga ega bo'lishdan tashqari islom dinining kelib chiqishi va O'rta Osiyoga tarqalishi tarixida ham bilimga ega bo'lib, buni albatta ingliz kitobxonlari ham bahramand bo'lishi lozimligini angladik. Adekvat tarjima hosil qilish maqsadida turli tarjima usullarini uyg'unlashtirib tarjima hosil qilishga bel bog'laganmiz. Bu albatta oson ish emas, chunki, tarjima jarayonida diniy so'zlar, reliyalar va arxaik so'zlar ingliz tilida qay holatda to'g'ri foydalanilishi, aynan qaysi so'zlar xos so'z o'rnida ishlatilishi mumkinligi xususida bilishimiz zarur. Masalan, mazkur asardagi diniy so'zlar: hadis, pir, nabiy, e'tiqod, islom ilohiyoti, murid, payg'ambar so'zlari tarjimasida ehtiyot bo'lishimiz lozim. Chunki, bitta noto'g'ri tanlangan so'z butun bir asarni, ijodkorning anglatmoqchi bo'lgan asl his-tuyg'ularini teskari qilib, chil-parchin qilishi mumkin. Yana bunday misollarni minglab keltirishimiz mumkin. Masalan tarixiy so'zlar hisoblangan qurultoy, davlat to'ntarishi, sohibqiron; yoki, qonini so'rmoq (qirib tashlamoq ma'nosida) nohaq qon to'kish, hukmron g'oya, o'ziga og'dirib olmoq, tutingan o'g'il kabi leksik birliklarning ingliz tilidagi aynan muqobilini topish qiyinchilik tug'dirdi. Ammo, bularni so'zma-so'z tarjima qilish tarjimachilik qonuniyatlariga zid bo'lishi mumkin. Shu sababdan, shularga o'xshagan so'zlarning, so'z birikmalari va frazeologik birliklarning aynan muqobili ikkinchi til lug'at boyligida bo'lmasa, shu ma'noni izohlar yoki yaqin ma'noli iboralar bilan ifodalashimiz mumkin. Ba'zida butun bir boshli paragrafni 2 yoki 3 ta gap bilan ifodalab mazmunini bildirib qo'yishning o'zi kifoya bo'lsa, ba'zan buning teskarisi bo'lishi mumkin. Ya'ni, bitta jumlaning ikkinchi tildagi mohiyatini chiqarib berish uchun bir necha gaplardan foydalanishimizga to'g'ri keladi. Bu jarayon tarjimachilikda noto'g'ri hisoblanmaydi, garchi ijodkorning fikri aniq ifodasini topsa bo'lgani. Yoki ikkita tarjimon tomonidan qilingan bitta jumla tarjimasida turlicha so'zlar bilan ifodalanishi ham mumkin. O'zbek tili shunday boy tilki, boshqa tillarda ifodalab bo'lmaydigan, aynan muqobil so'zlar boshqa tillarda mavjud bo'lmagan so'zlarga to'la. Masalan, Bekzod Abdirimov va Vasim Sajjad tomonidan yozilgan "Sulton Jaloliddin Xorazmshoh Pokistonda" (Sultan Jalaluddin Khwarazm Shah in Pakistan) deb nomlangan tarixiy asaridagi "yastanib yotgan" jumlasini diqqatimizni tortdi. Ingliz tilidagi tarjimasida esa tarjimon tomonidan mazkur so'z birikmasi tushirib qoldirib tarjima qilinganini guvohi bo'ldik:

Zero Qipchoq dashtidan Sind daryosigacha, Sharqiy Turkistondan Fors ko'rfazigacha yastanib yotgan katta sahrolar, tekisliklar, tog' va adirlar, vohalarni o'z ichiga olgan Xorazmshohlar davlati dunyoda barpo etilgan eng yirik imperiyalar qatorida turadi [8]. Mazkur jumla tarjimon tomonidan quyidagicha talqin qilinadi:

Because, The Khorezshahs state, which stretches from the Kipchak steppe to the Indus River, from East Turkestan to the Persian Gulf, was one of the largest empires in the world [8].

Xulosa. Tarjimadan shuni anglashimiz mumkinki, asl matndagi "...yastanib yotgan katta sahrolar, tekisliklar, tog' va adirlar, vohalarni o'z ichiga olgan..." degan joyi matnning ingliz tiliga tarjimasida tushirib qoldirilgan. Lekin bu bilan tarjimon qo'pol xatoga yo'l qo'ymagan, kitobxon uchun sodda tilda qisqa qilib, ijodkorning maqsadini kitobxonga yetqazib bera olgan deb hisoblashimiz mumkin. Bu bilan o'zbek tilimizning naqadar serqirra, naqadar betakror til ekaniga yana bir bor guvoh bo'ldik.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Hamidov X.X, Tarjimashunoslik fanidan ma'ruza matnlari", -Toshkent, 2012

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 5-martdagi Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani Isoqhon Ibrat nomidagi maktab-internatiga tashrifidagi nutqi. Elektron resurs:<http://www.uza.uz/oz...prezidentimiz-is-okhon-t-ra-ibrat-mazhm>
3. Salomov G', "Tarjima tashvishlari", -Toshkent, 1983 19-bet
4. Rojo A., Step by step: A course in contrastive Linguistics and Translation. Peter.Lang. 2009. -25-bet
5. Newmark P.A., Textbook of Translation. – London: Prentice Hall, (1988/1995). – p 5.
6. Hoshimova D., "Boburnoma" matnidagi tasviriy vositalarning ingliz tiliga tarjimalari tadqiqi. Filologiya fanlari bo'yicha fan doktori darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent 2018. -74-bet
7. Salomov G', Tarjima nazariyasiga kirish. – T.: O'qituvchi, 1978. – B.93.
8. Abdirimov B., Sajjad V., "Sulton Jaloliddin Xorazmshoh Pokistonda" – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2021-y.11 va 171-betlar.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 7 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).